

---

## Tumanimizda "Munozara" o'yini o'tkazildi

Tumanda bo'lib o'tayotgan "Yoshlar festivali" doirasida tumandagi o'zbek va tojik markazida o'rtasida tumandagi mahalla fuqorolar yig'inlaridagi yoshlar o'rtasida "Munozara" o'yini bo'lib o'tdi. Yoshlarni mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy pozitsiyaga ega qilib tarbiyalash, ularda tizimli tahlil qilish, mantiqiy fikrlash va mohirona munozara olib borish qobiliyati, notiqlik va liderlik sifatlarini rivojlantirish, o'zgalarning fikrini hurmat bilan qabul qilishga o'rgatish maqsadida Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi, tuman Ma'naviyat va ma'rifat bo'limi va Yoshlar ittifoqi tuman kengashi tomonidan tashkil etilgan o'yinda munozarali bahslar, jiddiy fikrlar, qarama-qarshi ijobiy raqobatlar tinglandi. «Munozara» so'nggida faol ishtirok etgan yoshlar hamda jamoalarga diplom va faxriy yorliqlar topshirildi.

2022-06-15 16:28:53